



XORIJIY MAMLAKATLARDA “ONLINE SHOPPING (ELEKTRON TIJORAT)” TIZIMINING TARTIBGA SOLINISHI

N. B. Karimova,

Chilonzor tumani davlat Xizmatlari markazi
katta mutaxassisi O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri
e-mail: zokirovanilufar710@gmail.com

Annotatsiya

Yigirmanchi asrning so'nggi o'n yilligi iqtisodiy, siyosiy va madaniy qadriyatlar haqidagi an'anaviy tushunchani o'zgartirib, jahon iqtisodiyotida tub o'zgarishlar davri bo'ldi. Ushbu o'zgarishlarning muhim jihatlaridan biri bu iqtisodiyotning globallashuvi bilan uzviy bog'liq holda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi edi. Zamonaviy texnologik inqilob avvalgilaridan farq qiladi. Agar o'tgan asrning boshlarida iqtisodiyotning rivojlanishi materiya va energiya kabi tushunchalar bilan bog'liq bo'lsa, bu safar uning rivojlanish istiqbollari makon, vaqt va bilim kabi fundamental tushunchalarni tubdan qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq. Bularning barchasi mamlakat hayotini davlat boshqaruvi, xizmatlar ko'rsatishning yangi usullariga moslashtirishni talab qiladi, shu qatorda biznes ham. Elektron tijorat paydo bo'lishi bilan Yevropa davlatlari va AQSH peshqadamlikni qo'lga oldi, negaki davr, zamon va global o'zgarishlar shuni talab etardi. Ushbu maqolada esa elektron tijoratning paydo bo'lishi va ushbu munosabatga nisbatan soliq to'lash tizimi tatbiq etilishi va bu AQSH va Yevropa davlatlarida qanday amalga oshirilganligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: online shopping (elektron tijorat), soliq, soliq ma'muriyatchiligi, huquqiy tartibga solish, AQSH, Yevropa.

REGULATION OF THE ONLINE SHOPPING (E-COMMERCE) SYSTEM IN FOREIGN COUNTRIES

N. B. Karimova,

Senior Specialist Public Services Center
Chilanzar district, Tashkent, Republic of Uzbekistan
e-mail: zokirovanilufar710@gmail.com

Annotation

The last decade of the twentieth century was a period of radical changes in the world economy, changing the traditional understanding of economic, political and cultural values. One of the important aspects of these changes was the rapid development of





Information Technology in close connection with the globalization of the economy. The modern technological revolution differs from the previous one if at the beginning of the last century the development of the economy was associated with such concepts as matter and energy, this time the prospects for its development are associated with a radical revision of such fundamental concepts as space, time and knowledge. All this requires adaptation of the life of the country to new methods of public administration, provision of services, while this thesis provides an idea of the emergence of e-commerce and the implementation of the tax payment system in relation to this attitude and how this is done in Russia and Kazakhstan.

Keywords: online shopping (e-commerce), tax, Tax Administration, Legal Regulation, USA, Europe.

РЕГУЛИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОНЛАЙН-ПОКУПОК (E-COMMERCE) В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Н. Б. Каримова,

Старший специалист Центра государственных услуг
Чиланзарского района Ташкент, Республика Узбекистан
e-mail: zokirovanilufar710@gmail.com

Аннотация

Последнее десятилетие двадцатого века было временем фундаментальных изменений в мировой экономике, изменивших традиционное понимание экономических, политических и культурных ценностей. Одним из важных аспектов этих изменений стало быстрое развитие информационных технологий, неразрывно связанное с глобализацией экономики. Современная технологическая революция отличается от предыдущих. Если в начале прошлого века развитие экономики было связано с такими понятиями, как материя и энергия, то на этот раз перспективы ее развития связаны с радикальным пересмотром таких фундаментальных понятий, как пространство, время и знание. Все это требует адаптации жизни страны к новым способам государственного управления, оказания услуг, а в данном тезисе рассматривается появление электронной коммерции и внедрение системы налогообложения в отношении этого отношения, а также то, как это реализуется в России и Казахстане.





Ключевые слова: интернет-магазины (электронная коммерция), налоги, Налоговое администрирование, Правовое регулирование, США, Европа.

Yigirmanchi asrning so`nggi o`n yilligi iqtisodiy, siyosiy va madaniy qadriyatlar haqidagi an'anaviy tushunchani o`zgartirib, jahon iqtisodiyotida tub o`zgarishlar davri bo`ldi. Ushbu o`zgarishlarning muhim jihatlaridan biri bu iqtisodiyotning globallashuvi bilan uzviy bog`liq holda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi edi. Zamonaviy texnologik inqilob avvalgilaridan farq qiladi Agar o`tgan asrning boshlarida iqtisodiyotning rivojlanishi materiya va energiya kabi tushunchalar bilan bog`liq bo`lsa, bu safar uning rivojlanish istiqbollari makon, vaqt va bilim kabi fundamental tushunchalarni tubdan qayta ko`rib chiqish bilan bog`liq. Bularning barchasi mamlakat hayotini davlat boshqaruvi, xizmatlar ko`rsatishning yangi usullariga moslashtirishni talab qiladi, shu qatorda biznes ham. Elektron tijorat paydo bo`lishi bilan Yevropa davlatlari va AQSH peshqadamlikni qo`lga oldi, negaki davr, zamon va global o`zgarishlar shuni talab etardi.

AQSH

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda, asosan AQShda, iqtisodiyotning elektron sektorini yanada rivojlantirish va shakllantirish 70-yillarning o`rtalaridan boshlab, iqtisodiy taraqqiyotning tovarlar va xizmatlar bozoridagi munosabatlar tabiati, shuningdek, sotuvchilar va xaridorlarning o`zaro munosabatlarini tubdan o`zgartirdi. Elektron shaklda boshqariladigan, tashkillashtirilgan, uzatiladigan va saqlanadigan axborot mahsulotlari va xizmatlar ishlab chiqarish iste'molchilarning eng muhim ehtiyojlaridan biri bo`ldi.

AQShda birinchi shaxsiy kompyuter - IBM Shaxsiy Kompyuter (1981) yaratilishidan oldin paydo bo`lgan edi. Keyinchalik iqtisodiyotning turli sohalarida kompyuterlarning keng miqyosda joriy etilishi tez o`sib bormadi. Biroq, samarali avtomatlashtirilgan tijoriy hamkorlik **1969-yilda** paydo bo`lgan Internet va tarmoqdagi tijoriy munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy asos paydo bo`ldi. **1990-yilgacha** Internetdan AQShning tijorat operatsiyalari uchun foydalanishi AQSh Milliy ilmiy jamg`armasining qoidalari bilan taqiqlangan edi. **90-yillarda** yirik xususiy kompaniyalar Internetga kirishni boshladilar **Shunday qilib, 1995-yilda** birinchi onlayn do`kon - **Amazon** tashkil etildi, u dastlab faqat tarmoq orqali kitob sotish bilan shug`ullangan. Xuddi shu yili birinchi **eBay** onlayn auksioni yaratildi, u hozirgi kunda dunyodagi eng katta elektron do`kon sifatida tanilgan, shuningdek Amazon ham **1998-yilga** kelib xususiy notijorat tashkilot **ICANN** bunday huquqlarga ega bo`ldi. Tarmoqlarni boshqarishning ushbu shakli foydalanuvchilar doirasini va natijada Internetning tijorat kontingentini





kengaytirishga olib keldi. **World Wide Web** butun dunyo bo`ylab millionlab foydalanuvchilarni jalb qildi. **Mosaic Netscape (1994)** tomonidan yaratilgan va foydalanuvchilarga qulay bo`lgan birinchi veb-brauzerning yaratilishi foydalanuvchilar ko`payishiga va yangi bozorlarda elektron tijoratning rivojlanishiga yordam berdi, ular keng funkcionallikka ega va umuman elektron tijorat imkoniyatlarini oshirdi.

Yuqorida aytib o`tilgan birinchi Amazon onlayn-do`koni haqida gap ketganda, shuni ta`kidlash kerakki, mahsulotlarni Internet orqali keng miqyosda sotish g`oyasi **1994-yilda** Amazon asoschisi **Jeffri Bezos**, DE Shaw & Co xedj fondining vitse-prezidenti bo`lganidan uzoqdan savdo do`konini yaratishga qaror qilganida paydo bo`lgan. Amazonning ustunlik jihati ularning raqobatchilardan yuqori imkoniyatlarga egaligi edi, negaki shunga o`xshash xizmatlar mavjud bo`lishiga qaramasdan, ularning mahsulotning asl shakli va xususiyatlarini to`g`ri belgilay olmas edi.

1997-yilda Prezident **Klinton "Global Elektron Tijorat asoslari"** ga (bundan keyin - Asoslar) imzo chekdi. Elektron tijoratni xalqaro tartibga solish va xorijiy mamlakatlarning milliy qonunchiligini rivojlantirishda ushbu hujjatning ahamiyati, asoslarning mohiyati va Internetda elektron tijorat bilan bog`liq turli munosabatlarning batafsil tartibga solinishida muhim rol o`ynaydi. Shunday qilib, elektron tijorat endi rasmiy maqomga ega bo`ldi.

AQShning 100 ta eng yirik online shopping tizimining uchdan biridan ko`prog`i elektron tijorat xizmatlarini ko`rsatish orqali o`z daromadlarini ko`paytirish imkoniyatiga ega. 2012-2015 –yillarda tarmoq savdo kompaniyalari global elektron bozorda ishtirok etishdan 375 milliard dollar, 2020-yilga kelib esa 535 milliard dollar daromad olishni rejalashtirmoqdalar. Elektron tijoratning cheksiz imkoniyatlari an`anaviy do`konlarning Internetga ommaviy o`tishiga olib keldi. So`nggi ikki yil ichida AQShda 10 000 dan ortiq do`konlar yopildi. Keyingi 5 yil ichida bu yerda savdo markazlarining 20-25% yopilishi mumkin. Bu esa elektron tijoratning global miqyosda avj olayotganligidan dalolatdir.

AQSH da elektron tijorattan soliqlar olinishidagi imtiyozlarga to`xtaladigan bo`lsak, Internetning o`sishi va soliqqa tortish masalalari AQSH da ham Kongressni "**Internetda soliqlarni ozod qilish to`g`risidagi qonun**" ni qabul qilishga majbur qildi. Bu soliqlar umuman bekor bo`ldi degani emas, albatta. Internetning maxsus soliqqa tortilishiga **uch yillik moratoriy** belgilandi. Bu davr ichida elektron tijoratchilar barcha turdagi soliqlardan ozod qilingan. Internet orqali tijorat operatsiyalari bilan shug`ullanuvchi iste`molchilar va sotuvchilar uchun yangi soliq majburiyatlari yuklanmagan. Bu **1998-yilda boshlangan** bo`lsa, uch yil davomida, ya`ni **2000-yilgacha** ushbu siyosat amalga oshirilgan. Moratoriydan





so`ng esa mamlakatda QQS to`lash joriy qilingan. **Demak**, bu imtiyoz online shoppingni rivojlantirib qolmasdan, balki unga soliq yig`imlarining ham ortishini jadal rivojlantirgan.

YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI

Elektron tijorat menejmenti rivojlanishining boshlanishi oltmishinchi yillarning oxiriga to`g`ri keladi. Internet zamonaviy biznesni tubdan o`zgartirishning asosiy vositasiga aylanmoqda. Yangi hodisa bilan bir qatorda, ijtimoiy munosabatlarning ilgari noma`lum bo`lgan obyektini tartibga solish zarurati bilan bog`liq qiyinchiliklar yuzaga keladi. Buning uchun fanlararo yondashuv, texnik, iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy bilimlarning uyg`unlashuvi zarur. Bundan tashqari, mutaxassislar ushbu sohada qonun ijodkorligi ishini boshlash uchun ikkita muhim narsani aniqlaydilar: texnologiyaning tez o`zgarishi va yangi iqtisodiyot sohasidagi iqtisodiy munosabatlarni globallashuvining yuqori darajasi. Agar biz elektron tijorat tizimlarini rivojlantirish bo`yicha Yevropa tajribasiga murojaat qilsak, tarixiy jihatdan birinchi bo`lib hisob-kitob tizimlariga elektron mexanizmlar kiritilgan, xususan: **Buyuk Britaniyada kliring va pul o`tkazmalari tizimlarida** elektron tijorat uchun tamal toshi qo`yildi. **Shunday qilib**, 1968-yilda Buyuk Britaniyada tijorat orqali naqd pulsiz hisobkitoblarga xizmat ko`rsatuvchi **BACS** (Bankers Automated Clearing Services) elektron pul o`tkazmasi va kliring tizimi yaratildi. Yevropa Ittifoqida elektron Yevropa dasturi Yevropa Ittifoqi fuqarolari hayotiga yangi axborot texnologiyalarini imkon qadar keng joriy etish, Internetga kirishning tarqalishi va boshqalarga qaratilgan. Ushbu dasturning huquqiy tomoni Yevropa Ittifoqi darajasida yangi, yagona qonunchilikni shakllantirish bilan bog`liq.

Elektron tijoratning huquqiy asoslarini yaratishda uning asosiy qoidalarining samarali mexanizmni ishlab chiqish zarurati paydo bo`ldi. Shu bilan birga, –haddan tashqari tartibga solishdan qochish, iste`molchilar huquqlarini himoya qilish, jamoat tartibini, aholi salomatligini va tarbiyasini saqlash zarur. Yevropa Ittifoqi axborot jamiyati xizmatlarini huquqiy tartibga solishni rivojlantirishda katta yutuqlarga erishdi. Yevropa Ittifoqida elektron tijorat sohasidagi asosiy normativ hujjatni ishlab chiqish bo`yicha qonunchilik ishlari **1996-yilda** boshlangan. Keng muhokamadan so`ng Yevropa Komissiyasi **1997-yil aprel oyida** Yevropa elektron tijorat faoliyatini boshladi. **2000-yil iyun oyida** Axborot jamiyati xizmatlarining, xususan, ichki bozorda elektron tijoratning ayrim huquqiy jihatlari bo`yicha ko`rsatma qabul qilindi. A`zo davlatlar **2002-yil 17-yanvargacha** milliy qonunchiligini qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatga muvofiqlashtirishlari kerak edi.





Qabul qilingan akt Yevropa Ittifoqining ichki bozorining umumiy tamoyillariga, masalan, faoliyatni tashkil etish va xizmatlarni ko`rsatish erkinligi (aktlarni chiqarish uchun tegishli vakolatlar Yevropa Ittifoqi to`g`risidagi Shartnomaning 47-moddasi 2-bandiga va 55-moddasiga muvofiq Ittifoq institutlariga beriladi), shuningdek ushbu qonunning qoidalarini milliy qonunchilikka uyg`unlashtirish (Yevropa Ittifoqi shartnomasining 95-moddasi) masalasi ko`rib chiqilishi kerak edi. Aktda qayd etilgan umumiy tamoyilga ko`ra, A`zo davlatlar chet eldan yuborilgan axborot xizmatlarini cheklash huquqiga ega emas, balki Yevropa Ittifoqi doirasidagina ushbu faoliyatni amalga oshiradi. Elektron tijorat bo`yicha ko`rsatma Yevropa Ittifoqi yetkazib beruvchilari tomonidan ko`rsatiladigan xizmatlarga nisbatan qo`llaniladi va uchinchi davlatlar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarga tatbiq etilmaydi. Elektron tijorat bo`yicha Aktdan va Yevropa Ittifoqining boshqa hujjatlaridan tashqari Internetda iqtisodiy faoliyatga soliq solinishi saqlanib qolmoqda. Hozirgi vaqtda A`zo davlatlar hududida tashqaridan qabul qiluvchilarga elektron ko`rinishda taqdim etilayotgan xizmatlarga **qo`shimcha qiymat solig`i** solinmaydi. Komissiya **2000-yilda** QQSning Oltinchi Aktiga kiritilgan mamlakatning prinsipi asosida ma`lum bir axborot jamiyatlarining xizmatlariga soliq solish joyini aniqlash qoidalarini nazarda tutuvchi o`zgartirish loyihasini ishlab chiqdi.

Yevropa Ittifoqi elektron tijorat iste`molchilarning mahalliy bozorda bo`lgani kabi Internetda ham mahsulotlar sotib olishlari va sotishlari mumkinligiga katta e`tibor qaratishadi. Yevropa Ittifoqiga A`zo davlatlar elektron tijorat orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar bo`yicha QQS va bojxona to`lovlarini yig`ish uchun javobgar hisoblanishadi. Yevropa Komissiyasi va A`zo davlatlar aniqlangan muammolarni qanday qilib yengib o`tishlari va mustahkam tartibga solish va nazorat qilish tizimini yaratishi bo`yicha bir qator ishlar amalga oshirgan.

Statistik ma`lumotlarga ko`ra, 2017-yil davomida Yevropa Ittifoqi tarkibidagi davlatlarda **har beshta korxonadan bittasi** elektron tijorat bilan shug`ullanishadi. **2008-yildan 2017-yilgacha** bo`lgan davrda elektron tijorat korxonalar ulushi **7 foizga** o`sdi va elektron tijoratdan tushgan korxonalar aylanmasi umumiy aylanma ulushining 5 foiziga teng bo`ldi. Xizmatlarni transchegaraviy yetkazib berishda qancha QQS yig`ilmaganligi bo`yicha hisobkitoblar mavjud bo`lmasa-da, Komissiya Yevroittifoq mamlakatlariga kirmaydigan mamlakatlardan arzon narxlardagi tovarlarni yetkazib berishdagi yo`qotishlaryiliga 5 milliard yevrogacha boradi. Shuningdek, 2015-yil boshida kuchga kirgan elektron tijorat xizmatlarining transchegaraviy yetkazib berishlariga QQS soliq solishning yangi tizimi joriy etildi. So`nggi ijobiy o`zgarishlarga qaramay, Yevropa Ittifoqi Internet orqali sotiladigan tovarlar va xizmatlar uchun QQS va bojxona





to'lovlarini yig'ishda barcha muammolarni hal etolmadi. A'zo davlatlar elektron tijorat orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar bo'yicha QQS va bojxona to'lovlarini yig'ish uchun javobgardir. QQS va bojxona to'lovlarini undirishdagi har qanday kamchilik, A'zo davlatlar va EI budjetlariga ta'sir qiladi. Soliqqa tortish va Bojxona ittifoqi Bosh Direktsiyasi (TAXUD DG) bojxona va soliq siyosati, shu jumladan elektron tijorat sohasida strategik va qonunchilik darajasida javobgardir. 2015-yil boshidan boshlab, Yevropa Ittifoqining qonun chiqaruvchisi telekommunikatsiya, radioeshittirish va elektron taqdim etiladigan xizmatlarga soliq solish uchun «**Mini bitta darcha**» tizimini (MOSS) joriy etdi. MOSS ga binoan, iste'molchilarga elektron tijorat xizmatlarini taqdim etadigan savdogarlar iste'molchilar tashkil etilgan A'zo davlatlarda (–iste'molchi davlat!) qo'llaniladigan stavkalar bo'yicha QQS to'laydilar. Biroq, ular istagan a'zodavlatda QQS to'lash uchun ro'yxatdan o'tishlari mumkin (–A'zo bo'lgan davlat yoki MSIDE) va har bir a'zo davlatga taqdim etilgan barcha xizmatlarni o'z ichiga olgan va tegishli QQS to'lagan holda QQSning yagona deklaratsiyasini taqdim etishlari mumkin. So'ngra MSIDE har bir a'zo davlatga QQS to'lanadigan soliqni to'laydi. MOSS nafaqat Yevropa Ittifoqida ro'yxatdan o'tgan, balki Yevropa Ittifoqiga kirmagan savdogarlarga ham tegishlidir

